

O'ZBEK LIBOSLARI: MILLIYLIK, NAFOSAT VA TARIX

*O'zbekiston amaliy san'at va
hunarmandchilik tarixi davlat
muzeyi Muzey buyumlari va fond
to'plamlarini qayd etish va ro'yhatga
olish bo'limi ilmiy xodimi*

Ikromova Gulhayo

Annotatsiya: Maqolada milliy liboslarning turlari va tarixi, mato turlari, hududlar kesimida nomlanishi, naqshlar va bezaklarning qo'llanishi va ma'nolari, milliy liboslarning zamon bilan uyg'unligi haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Mursak, paranji va chachvon, qiyiqcha, do'ppi, jiyak, ro'mol, belbog', chopon.

***Bizni umumiy tarix, madaniy va ma'naviy
qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar birlashtirib turadi."***

Sh.Mirziyoyev .

Milliy liboslar – millatning an'anaviy qadriyatlari va urf-odatlarini o'zida mujassam etgan mo'jaz san'at asarlari hisoblanadi. Xususan, o'zbek milliy liboslari o'zining nafosati va ajib jilosi bilan chet el sayyohlarini ham xushnud aylamoqda. O'zbek milliy an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan liboslar tarixini yosh avlodga singdirish va chet ellik mehmonlarni bahramand etish maqsadida O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida "Milliy liboslar" ekspozitsiya zali tashkil etilgan. Zalda ayollar va erkaklar liboslari, oyoq kiyimlar, O'zbekistonning turli hududlariga tegishli bosh kiyimlari, paranji, ro'mollar va liboslarning bir qismi hisoblangan jiyaklar namoyish etilgan. Ular XIX asr oxiri- XX asr boshlariga tegishli. Afsuski, qadimgi davrga oid kiyimlarni saqlab qolishning iloji bo'lmagan, chunki liboslar doimiy iste'molda bo'lgan moddiy yodgorliklardir. Xususan, ushbu

dolzarb mavzuda kam uchraydigan tadqiqot O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tarix fanlari doktori Nafisa Sodiqova tomonidan olib borilgan.¹

O'zbek milliy liboslari ayollar va erkaklar kiyimlariga bo'linadi. Kiyimlarning tikilish asosi bir xil, andoza jihatdan yaqin hisoblanadi: asosan, keng va uzun, o'tirish uchun qulay. Mamlakatimizning serquyosh va issiq hudud ekanligini hisobga olgan holda tikilgan ushbu kiyimlar badanga yopishmaydi va noqulaylik tug'dirmaydi. Qishda kiyishga mo'ljallangan, paxta matosidan tikilgan choponlar ham mavjud bo'lgan. Hozirda zamonaviy kiyimlarning ommalashgani tufayli bunday kiyimlar shahar aholisi orasida kam uchraydi, lekin qishloq aholisi orasida haligacha saqlanib qolgan. Ayollar liboslari tizzasigacha, erkaklarniki esa to'pig'icha uzunlikda bo'lgan.



1-rasm. Mursak -ayollar choponi. XX asr boshlari. Buxoro.



2- rasm. Mursak –ayollar choponi. XX asr boshlari. Toshkent

Zal ekspozitsiya devorida namoyish etilgan kiyim-mursak ayollar libosi hisoblanadi. Mursak-arabcha “ziynatlangan, bezatilgan“ degan ma'noni anglatadi. Yengi kalta, ichi astarli, yoqasi to'nga o'xshash oldi ochiq, ingichka jiyaklar bilan

¹ Содиқова.Н.С. Ўзбек миллий кийимлари XIX-XX асрлар -Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Т- 2006. Б.192 .

bezatilgan. Odatda, adras, shoyi, baxmal va boshqa matolardan tayyorlanadi. Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, qizlar sepining ajralmas qismi bo'lgan. Qishda kiyish uchun yupqa paxta solib qavilgan. XIX asrgacha ayollar uchun ustki kiyim va yopinchiq vazifasini bajargan. Keyinchalik to'y va aza marosimlarida ayollarning tobuti ustiga yopinchiq vazifasida foydalanilgan.² Sharq olamida ayollar kiyimi keng va uzun qilib tikilgan, aynan ayollarning kiyinishi erkakning or-nomusi sifatida qaraladi.

Mamlakatimiz turli viloyatlaridagi kiyimlarida farqlar sezilarli darajada emas. Asosan, andoza va tikilish jihatdan o'xshashliklar mavjud bo'lib, bezaklari va naqshlarida tafovutlar bor. Chunonchi, Buxoro va Samarqand hududi kiyimlari bashangligi va noyob zardo'zi kashtalari bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Amirlar va xonlarning marosimda va tashkiliy uchrashuvlardagi kiyimlari zardo'zi to'nlardan iborat bo'lgan. Ulardan biri muzeyning zardo'zlik ekspozitsiya zalida namoyish etilgan. Buyuk Ipak yo'lidagi muhim markazlar hisoblangan Toshkent va Farg'ona vodiysi kiyimlarida yorqin ranglarni ko'rmaymiz, asosan, sodda va sokin ranglar odamiylik timsoli sifatida gavdalanadi. Yurtimizning issiq iqlim mintaqasi bo'lmish Surxondaryo va Qashqadaryo kiyimlari shu tabiiy shart- sharoitlardan kelib chiqilgan holda tikilgan. Ranglari yorqin, bichimi keng, noyob kashta bezaklarini shu hudud hunarmandchilik namunalari uchramiz. Har bir inson qalbiga o'z lazgisi bilan xursandchilik olib kirgan Xorazm hududi kiyimlari yoshi jihatidan, hayotiy hissiyotlar, kundalik yumushlari va tabiiy sharotidan kelib chiqqan holda tikilgan. Eng mashhur bosh kiyimi cho'girmadir.³

XX asrning 20-30- yillari Markaziy Osiyodagi aholi e'tiqodida tub burilish yasaydi. 1924 - 1926 - yillar oralig'ida ayollarni paranji tashlashga majburlash boshlanadi. Bu holat keyinchalik ko'pgina oilalarda nizo, kelishmovchilik va oxir-oqibatda 2 500 xotin - qizlarning bevaqt o'limiga sabab bo'ladi. Shu paytgacha qizlar

² Давлатова.С. Ўзбек кийимларининг изоҳли луғати .- Т. : “Yangi nashr”, 2016.-Б.128.

³ Cho'girma - mo'ynalari uzun bosh kiyimi.

islom dini ruhida tarbiyalangan, ular ko'chaga paranjisiz chiqishmagan. Yupqa to'rtburchak shaklidagi to'rsimon chachvon orqali paranji ostidagi ayol bemalol atrofni ko'ra olgan, lekin boshqalar yuzini ko'rolmagan. Chachvon otning yolidan tayyorlangan. Paranji kiygan ayolning qaddi - qomatini ko'rish imkonsiz, 2 ta soxta yengi mavjud bo'lib, agar u orqa qismiga bog'langan bo'lsa, uning oilali ekanligini anglatgan. Kiyimning rangi uning yosh davrini ham belgilagan: och rangli libos paranji ostidagi ayolning yoshroqligini, to'q ranglar esa yoshi kattaroq ekanligini anglatgan. Bezak sifatida kiyim chetlariga jiyaklar⁴ ishlatilgan. Hozirda to'y marosimlarida va kelin salomida kiyiladi.



3-rasm. Paranj-ayollar ustki kiyimi. XX asr boshlari. Toshkent.

“Qayga bormay boshda do'ppim, g'oz urarman, gerdayib...”, - deya ta'kidlagan o'zbek she'riyatining yorqin vakili Erkin Vohidov o'zining “O'zbekim” qasidasida. Darhaqiqat, o'zbek xalqining milliy g'ururi do'ppilardir. Do'ppi - yengil bosh kiyimi bo'lib, turkiylar orasida qadimda keng tarqalgan. Milliy kiyimlarning bir bo'lagi. Qishda sovuqdan, yozda esa issiqdan va quyosh urib qolishidan o'ziga xos himoya qiluvchi moddiy yodgorlikdir. Mamlakatimizning Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Chust hududiga tegishli bosh kiyimlari ayniqsa, mashhur. Kelinlar sepida alohida o'ringa ega. Erkaklarning mashhur Chust do'ppilari ko'proq aza marosimida kiyiladi.

Erkaklarning milliy kiyimi - chopon kundalikda keng foydalaniladi. Asosan, yenglari uzun va keng qilib tikiladi. Tarkibi jihatidan hududlarda farqlar kuzatiladi. Buxoro choponlari xalq tilida “joma” deyiladi. Astarli va qo'shimcha kiyim kiyilishi

⁴ Jiyak- kiyimlarga bezak sifatida tikiladigan ensiz tasma. Lozim, to'n yaktak, do'ppi chetiga tikiladi. Surxondaryoda “sherozi” Toshkent va Qashqadaryoda “jiyak”, Buxoro va Samarqandda “zeh” deb ham yuritiladi.

uchun keng qilib tikiladi. Amirlar va amaldorlar zardo'zi choponlar kiyishgan. Muzeymizning 10-zalida shunday choponlardan biri tashrif buyuruvchilar uchun namoyishga qo'yilgan. Choponlar ustidan belbog' bog'lanadi. Belbog'lar erkaklarning jasorati, mardligi timsoli hisoblangan. Kundalikda oddiy matodan tikilgan, to'y va marosimlarda esa turli bezakli belbog'lardan keng foydalanilgan. Kashta tikib, turli bezaklar tikilgan va kichikroq ko'rinishdagi belbog' turlari - qiyiqcha deyilgan. Tarixdan ma'lumki erkaklarning asosiy hayoti urush maydonida va safarlarda bo'lib o'tgan. Shunday sharoitda belbog'larida non yoki yeguliklarini boylab olishgan, turli sharoitlarda joynamoz sifatida va boshqa turli maqsadlarda foydalanishga qulay bo'lgan. Hozirgi kunda aza marosimlarida foydalaniladi.

Zamon ildamlagani sari turli brenddagi kiyimlarning ommalashgani bizga ma'lum. Lekin shunga qaramasdan, milliy liboslarimiz haligacha o'z qadrini yo'qotgan emas. Zamonaviy dizayndagi liboslarimizni hozirda har bir sotuv rastalarida uchratamiz. Ayniqsa, yoshlar orasida do'ppi kiyish ommalashmoqda, dizaynerlarning mohirlik bilan olib borayotgan ishlari milliy kiyimlarni butun dunyoga namoyish etish uchun katta samara bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Давлатова.С. Ўзбек кийимларининг изоҳли луғати. -Т.: “Yangi nashr”, 2016.-Б.128.
2. Содиқова.Н.С. Ўзбек миллий кийимлари XIX-XX асрлар -Т.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи,Т- 2006.Б.192 .
3. Костюм народов Средней Азии.Историка-этнографические очерки - М.:1979.С.247.

Internet manbalari:

1. <https://society.uz>.